

“YOSHLAR DAFTARI” — KENG IMKONIYATLAR ESHIGI

1

“Yoshlar daftari” hayotga tatbiq etilishi bilan ehtiyojmand, kam ta’minlangan oilalar, ijtimoiy ko’makka muhtoj xotin-qizlar va yoshlar turmush tarzida tub o’zgarishlar yuz berganiga barchamiz guvohmiz.

Qo’shtepa tumanidagi mahallalarda ham “Yoshlar daftari” orqali muammo va murojaatlari xal etilayotgan yoshlar ko’pchilikni tashkil qiladi.

Jumladan, “Qizilariq” mahalla fuqarolar yig’inida istiqomat qiluvchi, qizil toifaga mansub yana bir yoshning muammosi hal etildi.

Tuman IIB boshlig'i Sh.Mavlonov hamda Yoshlar ishlari agentligi tuman bo’limi boshlig'i A.Umraqulovlar “Qizilariq” mahalla fuqarolar yig’inida yashovchi nogironligi bor shaxs sifatida “Qizil” toifaga kiritilgan D.Badirdinovaning yashash xonadonida bo’lib, uning xolidan xabar olishdi. D.Badirdinovaga amaliy yordam berilib oziq-ovqat mahsulotlari hamda kampyuter jamlanmasi topshirildi.

[**Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating**](#)

[Facebook](#),

2023-05-10 13:20:09